

*№ 3 (3) - 2023*

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 3 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Укташ Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазраткулов Аброр** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Яхшиликов Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Ҳошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Қўчимов Шуҳрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Рахман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуротовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфисилиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Хашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Хавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

**Тайланова Шохидা Зайнисевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васила Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

**Умарова Навбаҳор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодира Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллый университети;

**Содиқова Шоҳида Марҳабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атакулович** –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллый университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod*  
QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI ..... 9-14

*Шуҳрат Эргашев*  
ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ  
ТҮНТАРИШИ ..... 15-23

*Касимова Шахноза Алишеровна*  
ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ ..... 24-29

### **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Файзиева Ширин Шодмоновна*  
АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ  
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ..... 30-35

*Musagaliyev Ajsiniaz Жумагулович, Dустова Мухайё Худайбердиевна*  
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ Қўллаб-қувватлаш борасидағи айрим  
МАСАЛАЛАР ..... 36-41

*Murodova Nargiza Utkirovna*  
TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI ..... 42-47

*Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Xaydarovich*  
KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY TO'LOVGA LAYOQATSIZLIGI XAVFINI ANIQLASH ..... 48-55

*Temirova Feruza Sagdullayevna*  
MARKETINGNING ZAMONAVIY TEHNOLOGIYASI -  
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANТИRISH ..... 56-62

*Sobirova Marhabo Haitovna*  
MEVA-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARI ..... 63-67

*Mamajonova Gulasal Oribjon qizi*  
KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI ..... 68-77

*Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich*  
O'ZBEKİSTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA RISKLARINI  
BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 78-87

<i>Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович</i>	
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ .....	88-101
<i>Каржавова Хуршида Абдумаликовна</i>	
МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	102-110
<i>Soliyev Dilmurod Jamolovich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING ASOSIDIR .....	111-119
<i>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI .....	120-130

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Тўраев Шавкат Нишонович</i>	
ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ .....	131-137
<i>Qodirov Davronbek Hoshimovich</i>	
TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY .....	138-143
<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i>	
TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI .....	144-148

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Гаппаров Алибек Қаршибоевич</i>	
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ .....	149-155
<i>Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqt Qudratillayevna</i>	
APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND AND VISUALLY IMPAIRED .....	156-161
<i>Ахмедшина Лилия Рафаэльевна</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ » и «ЖЕНА» В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ.....	162-166
<i>Kholmuminova Makhliyo</i>	
DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES .....	167-171
<i>Shirinova Yekaterina</i>	
NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI .....	172-178

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Кутлымуратов Фарҳад Қалбаевич</i> ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ .....	179-185
<i>Kasimov Nodirjon Sodikjonovich</i> QASDDAN ODAM O'LDIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY XUSUSIYATLARI .....	186-196
<i>Урманбаева Ферузахон Саттаровна</i> ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ .....	197-203

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich</i> “HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR TAHLILI) .....	204-210
<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI .....	211-217
<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TARBIYALASH .....	218-223
<i>Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ .....	224-229
<i>Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich</i> HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	230-236
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES .....	237-244
<i>Yusupov Dilmurod Abdurashidovich</i> YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH .....	245-254
<i>Ergashev Omonboy Turgunbayevich</i> TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI VA PEDAGOGIK ASOSLARI .....	255-260

*Ruzmetova Novval Vahabdjanovna*

- THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW  
SCHOOLS ..... 261-269

*Raxmatov Otabek Urinbosarovich*

- BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY  
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI ..... 270-274

*Makhmudov Furqat Djumaboyevich*

- YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI  
O'QITISH USULLARI ..... 275-281

*Бабахова Гулзиба Зиятбаевна*

- К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ  
КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА ..... 282-289

*Dexkanov Sherzod Abdumatalibovich*

- KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI  
TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA ..... 290-296

*Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна*

- КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ  
ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ..... 297-301

07.00.00 Тарих фанлари

**Axmedov Jasurbek Zokirjonovich**

Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti  
“Muzeyshunoslik” kafedrasи mudiri, t.f.f.d. (PhD)  
E-mail: [jasur184@list.ru](mailto:jasur184@list.ru)

**Jabborova Gavharshod Tulqinjonovna**

Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti

## QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Toshkent viloyatidagi Qanqa arxeologik ob'ektining o'r ganilish tarixiga bag'ishlangan. Xususan, mazkur yodgorlik bo'yicha yillar davomida amalga oshirilgan arxeologik ekspeditsiyalar va ular asosida topilgan topilmalar borasida muayyan fikrlar keltirib o'tilgan. Mazkur yodgorlikni muzeylashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Qanqa, Xarashkat, Bitan, ekspeditsiya, arxeologiya, ark, shahriston, qal'a, rabod, mudofaa devoir, muzeylashtirish.

**Ахмедов Жасурбек Зокиржонович**

Заведующий кафедры Музееведение  
Национального института художеств  
и дизайна имени Камолиддина Бехзода,  
доктор философии по истории (PhD)

**Жабборова Гавхаршод Тулкинжоновна**

Магистр Национального института художеств  
и дизайна имени Камолиддина Бехзода

## К ВОПРОСУ МУЗЕЕФИКАЦИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ПАМЯТНИКА КАНКА

**Аннотация.** В данной статье освещена история изучения археологического памятника Канка в Ташкентской области. Также были сделаны определенные замечания об археологических экспедициях, проводившихся в разные годы на этом памятнике и найденных на их основе находках. Особое внимание уделяется музеефикация этого памятника.

**Ключевые слова:** Канка, Харашкат, Битан, экспедиция, археология, ковчег, город, крепость, рабад, оборонительная стена, музеефикация.

**Akhmedov Jasurbek Zokirjonovich**

Head of Department Museumology  
National Institute of Fine art  
and design named after Kamoliddin Bekhzod  
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

**Jabborova Gavharshod Tulqinjonovna**

National Institute of Fine art  
and design named after Kamoliddin Bekhzod

## **TO THE QUESTION OF MUSEUMIFICATION OF THE ARCHAEOLOGICAL MONUMENT OF KANKA**

**Abstract.** This article highlights the history of the study of the archaeological site of Kanka in the Tashkent region. Certain remarks were also made about the archaeological expeditions carried out in different years on this site and the finds found on their basis. Particular attention is paid to the museumification of this monument.

**Key words:** Kanka, Harashkat, Bitan, expedition, archeology, ark, city, fortress, rabad, defensive wall, museumification.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N01>

O'zbekiston hududidagi moddiy madaniy meros ob'ektlarining ko'p qismini arxeologik yodgorliklar tashkil qiladi. Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish hamda ularni zamonaviy muzey amaliyotining muhim qismiga aylantirish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 261-sonli qarorning 8-ilovasida 2023-2026-yillarda Surxondaryo viloyatidagi Dalvarzintepa yodgorligi, Andijon viloyatidagi Mingtepa yodgorligi, Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepa yodgorligi, Samarqand viloyatidagi Sherozqal'a yodgorligi, Qoraqolpog'iston Respublikasidagi Qo'yqirilgan qal'a va Aqchaxon qal'a yodgorliklari, Navoiy viloyatidagi Nur qal'a yodgorligi, Namangan viloyatidagi Pop (Munchoqtepa) yodgorligi, Jizzax viloyatidagi Qaliyatepa yodgorligi, Surxondaryo viloyatidagi Qoratepa yodgorligi, Farg'ona viloyatidagi Quva shahristoni, Buxoro viloyatidagi Poykent yodgorligi, Toshkent viloyatidagi Qanqa yodgorliklarini muzeylashtirish masalasi belgilab qo'yilgan [1].

Toshkent vohasidagi qadimiy shaharlarning har biri o'zining betakror tarixiga ega. Bu borada Toshkent vohasining qadimiy poytaxti Qanqa diqqatga sazovordir. Vohaning yirik savdo-iqtisodiy markazlaridan birining o'rni hisoblangan mazkur yodgorlik mil. av. III asr boshlarida shakllanib, XI asrning oxiriga qadar hayot uzlusiz davom etgan [6, 41].

M.Masson Qanqa nomini Avestoda yozilgan "Kangxo" bilan bog'liqligini taxmin qilgan. Lekin keyinchalik Qanqa nomi "Shohnoma"dan kelib chiqqan degan xulosaga kelgan. Xalq orasida shahar nomining shoh Qanqa (yoki Anqa) bilan bog'liqligi haqida afsonalar yurishi haqida ma'lumotlar bergen [11, 115]. Xalq orasida yuradigan boshqa ma'lumotlarga ko'ra Qanqa toponimi "qon" so'zi bilan bog'liq bo'lib, "qonli", "qurbongoh" ma'nolarini anglatadi [5, 59].

Keyingi davr tadqiqotchilari shaharning nomini Kangyuy davlatiga oidligini ta'kidlashadi. Qang' davlati tarkibida bo'lgan Shoshning birinchi poytaxti shu yerda bo'lgani taxmin qilinadi [12, 36].

Qadimgi Xitoy yozma manbalarida Bitan (Bityan), Yuni va Xarashkat nomlari bilan tilga olinadi. Ayrim arxeologlar Qanqani Skif Antioxiyasi shahri xarobasi deb hisoblashadi. Bu shaharga miloddan avvalgi III asrda Yaksart daryosining (hozirgi Sirdaryo) o'ng qirg'og'ida yunon qo'mondoni Demodam tomonidan asos solingan va shoh Antiox sharafiga nomlangan.

O'rta asrlarda shahar Xarashkat deb nomlanadi. O'rta asr tarixchisi Ibn Havqalning yozishicha Xarashkat kattaligi bo'yicha Shosh hududidagi Binkatdan keyingi ikkinchi o'rindagi shahar hisoblangan [3, 24].

Qanqa to'g'ri to'rtburchak shaklida, umumiy maydoni 200 ga teng bo'lib, bir necha qator mudofaa devori va xandaqlar bilan o'ralgan, ark, shahriston va raboddan iborat bo'lgan. Shahristonning maydoni 6,5 ga bo'lib, shimoliy qismida ark (balandligi 40 m) joylashgan. Uning atrofi xandaq bilan o'ralgan. Ark va Shahristonni uch tomondan maydoni 50 gektardan ortiqroq Shahriston II o'rab olgan. Shahristonlarga tashqaridan rabod (maydoni 10 ga) yondashgan. Miloddan avvalgi I - milodiy I asrlarda shahar ravnaq topgan. Shahristonlar va rabodda ko'cha-ko'ylar, maydonlar, hovuz va oqar suv tarmoqlari hamda paxsa va yirik xom g'ishtlardan bino qilingan turar-joy qoldiqlari saqlanib qolgan. Qadimdan milodiy I-II-asrlarda zarb etilgan kumush va mis tangalar (jumladan, IV-XI asrlarga oid tangalar xazinasi), oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan taqinchoqlar, sopol haykalchalar (terrakotalar), ostodon (ossuariy), sirlangan va sirlanmagan sopol idishlar, tosh, suyak va metalldan ishlangan quroq va asboblar hamda devoriy surat qoldiqlari topilgan. Turli xildagi bunday ashyoviy topilmalar shubhasiz, Qanqada temirchilik, kulolchilik, tikuvchilik va hunarmandchilikning boshqa turlari rivoj topganidan dalolat beradi. Vayron bo'lgan shahar, keyinchalik (IX asrda) qayta tiklangan.

Ark – Xarashket hukmdorining istehkomli qarorgohi bo'lib, hanuz qariyb 45 m balandlikda savlat to'kib turibdi. Ark hududida serhasham saroy, xo'jalik xonalari, ibodatxona va qamoqxonalar joylashgan. Qarorgohning shimol tomonida Ohangaron daryosining qadimiy irmog'i – Qorasuv mavj urib oqadi. 20 m chuqurlikda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida minora va shinakli devor ichkarisi ikki qavat tor yo'lakli qadimiy qal'a devori topilgan. Qal'a devori va arkning shimoliy-sharqiy burchagi bo'ylab tepaga – darvozaga olib boruvchi qiya yo'lak o'tgan. Shahriston hududida shahar ibodatxonasi, yirik karvonsaroy, turarjoylar va hunarmandlar ustaxonalari qazib ochilgan [4, 119]. Mil.avv. XII asrda Ohangaron daryosi o'zanining o'zgarishi tufayli suvsiz qolib harobaga aylangan [9, 108].

Yodgorlik dastlab, Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zosi Ye.T.Smirnov (1898) tomonidan o'ganilgan. Keyinchalik M.E. Masson (1934), so'ngira Moddiy-madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish jamiyatni (Q.Abdullayev, F.Hasanov, D.Alimova, 1969–1972), 1974-yildan O'zbekiston FA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shaharda III-IV asrlarda alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan uchinchi shahriston shakllanadi. VI-VII asrlarda O'rta Osiyoning ko'pgina shaharlarida kuzatilgani kabi Qanqa maydonining ham keskin qisqarish jarayoni sodir bo'lib, ichki tomonida mudofaa devori bilan o'rab olingan ikkinchi shahriston vujudga keladi [10, 155]. Natijada VI-VII asrlarda shaharning arkdan tashqari alohida mudofaa devorlariga ega bo'lgan uchala shahristoni to'liq shakllanadi [4]. VII-VIII asrlarda shaharning janubiy qismida kulolchilik ishlab chiqarishi paydo bo'lishi bilan uning rabod qismi ham qaror topadi [2, 84].

Shaharning qadimgi va o'rta asrlar davri savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarish qismi yodgorlikning janubiy So'g'd darvozasidan ichkarida, ko'cha bo'ylab ikkinchi shahriston mudofaa devoriga qadar taxminan 300 metr masofada joylashgan. Darvoza yaqinida o'tgan asrning 70-yillarida amalga oshirilgan arxeologik qazish ishlari davomida VII-VIII asrlarga oid kulolchilik xumdonlari, X-XI asr birinchi yarmiga oid kulolchilik, shishasozlik, suyak, temir, mis va boshqa turdagisi sakkizga yaqin hunarmandchilik sohalari uchun xizmat qilgan 30 ga yaqin

xonalar hamda ularda uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, zargarlik buyumlari topib o'r ganilgan [8, 99].

Ikkinch shahristonning mudofaa devori yaqinida yodgorlik xarobalari sathiga nisbatan 7-10 metr pastda joylashgan tekis joy, Yu.F. Buryakovning taxminiga ko'ra, shahar bozori bo'lган. Janubiy va g'arbiy ko'chalar kesishgan joyda shahar karvonsaroyi (tomonlari 95x95 m.) o'r'in olgan. Unda 1969-1972 yillarda K.Abdullayev, 1993-1994 yillarda esa G.I.Bogomolovlar tomonidan arxeologik qazish ishlari olib borilgan.

Metallurglar mahallasi va karvonsaroyda R.Z.Ibragimov tomonidan 2008-yilda arxeologik qazish ishlari amalga oshirildi. Metallurglar mahallasidagi qazishma (3x3 m.) ishlari janubiy darvozadan taxminan yuz metr shimoliy-g'arbda olib borildi. Qazilmaning asosiy qismi 2 metr, shimoliy-g'arbiy qismida esa 1x1 metr joy materikgacha (3,2 m.) qazib tushildi. Uning madaniy qatlamlari bo'sh tuproq, kul qatlami, temir eritish jarayonida hosil bo'lган toshqotishmalardan iborat. Moddiy topilmalar kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlarning parchalari, simob ko'zachalar, tutatqidonlar, boyitilgan temir bo'laklari, metallarni bolg'alash uchun ishlatilgan tosh va 24 dona yarim yemirilgan mis tangalar nusxalarini tashkil etadi. Kulolchilik buyumlar Qovunchi madaniyatidan (Qovunchi II) to X-XI asrlargacha bo'lган davrlarga oid sopollar majmuasidan iborat. Mis tangalardan III-IV asrlar davri qadimgi Choch, VI asr oxirgi choragi-VII asr boshlariga oid Choch hukmdorlari va VII asr ikkinchi yarmi - VIII asr boshlariga oid o'rtasi teshik Xitoy tangalarining nusxalari ajralib turadi [10, 155].

2022-yilda O'zR FA Milliy arxeologiya markazi tomonidan Qanqada kompleks ekspeditsiya olib borildi. Qanqa yodgorligida olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida Toshkent vohasining o'rta asrlar tarixiga oid yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Jumladan, XI-XII asrlar bilan davrlashtirilgan uzunligi 12 metr, kengligi 6.30 m bo'lган katta zal ochildi. Zalning kirish qismi poli pishiq g'ishtlar bilan terilgan bo'lib, yon devorlari qalinligi 1.30 m kenglikda ekanligi uning mahobatli inshoot ekanidan dalolat berib turibdi.

Zalning janubiy-g'arbiy burchagidagi yon devorlarida ham pishiq g'isht bilan qoplangan maxsus joy qilingan bo'lib, kuchli olov natijasida kuyganligi bu yerda yog'ochdan ishlangan peshtoq ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur joyda yong'in natijasida peshtoqdan qulab tushgan yirik yog'och qoldiqlari olinib, ularning saqlanganlari sinchiklab o'rganildi. Natijada, yuza qismlari o'yma naqshlar bilan bezatilgani qayd etildi.

Qazuv ishlari davomida shuningdek, o'rta asr qatlamlari ostida ilk o'rta asrlarga oid bo'lган yana bir yirik inshoot qoldiqlari ochildi. Inshoot Qanqa yodgorligining ilk o'rta asrlarga tegishli ibodatxonasi sharqiyo tarafida joylashgan. Shu sababli ushbu yirik qurilish qoldiqlari ibodatxona bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkinligi haqida xulosalar qilishga imkon beradi.

Qanqa arxeologik ob'ektida yillar davomida ko'plab mutaxassislar tomonidan arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida yodgorlik tarixidan so'zlovchi bir qator muhim faktologik materiallar aniqlangan. Lekin Qanqa arxeologik ob'ektida topilgan yangi topilmalar ushbu yodgorlikning hali o'rganilmagan jixatlari ko'p ekanligidan dalolat beradi.

Keltirilgan dalillardan ko'rinish turibdiki Qanqa tarixiy ahamiyatga molik juda ham noyob yodgorlik. Mazkur yodgorlikni muzeylashtirish mutaxassislar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Muzeylashtirish masalasini innovatsion loyihamar yordamida hal qilish maqsadga muvofikdir. Masalan, yodgorlik tarixi va unda sodir bo'lган tarixiy voqealarni muzey ko'rgazma installiyatsiyalarini yaratish orqali muzeylashtirish ham mumkin. Bunday loyihamarni amalga oshirish arxeologik yodgorliklar salohiyatidan yanada to'laroq foydalanish

imkoniyatini beradi. Shu tariqa zamonaviy texnologiyalar yordamida tashrif buyuruvchilar arxeologik yodgorliklar tarixi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar [8, 99].

O'zbekiston hududidagi ayrim arxeologik yodgorliklar asta-sekin yemirilib, yo'qolib ketmoqda. Buning asosiy sababi ob-havoga chidamsiz bo'lgan loy, paxsa va xom g'ishtlardan qurilganligi bo'lsa, ikkinchidan ular ochilgandan keyin saqlash choralar ko'rilmasligidadir. Fikrimizcha bunday holatning oldini olish uchun arxeologik tadqiqotlar sarf-xarajati ro'yxatiga kimyoviy konservatsiya uchun mablag'lar kiritilishi zarur.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan yodgorliklarni kimyoviy konservatsiya qilish usullarining bir necha turlari ishlab chiqilgan. Ixtiro qilingan bu usullar ancha arzon, oddiy va samaralidir. Ularni asosida tayyor polimer moddalarni devor sathiga singdirish orqali emas, balki ularni dastlabki xomashyosi bo'l mish monomerlariga organik erituvchi va reaktsiyani tezlashtiruvchi katalizatorlar aralashmasini singdirish yotadi. Kimyoviy eritmalar devor ichiga ma'lum miqdorda kiritilgandan keyin quyosh nuri va havo harorati ta'sirida tuproq zarrachalarini qotiruvchi polimerlar xosil qiladi. Natijada devor yuzidagi paxsalarni qattiqqlik darajasi va ob-havo faktorlariga chidamliliginи keskin oshiruvchi qatlam yuzaga keladi. Bunday ishlov berish bilan qotirilgan maydonlarning qattiqligi pishiq g'ishtlar darajasigacha ko'tarilishi hamda uzoq yillar ob-havo ta'sirida buzilmay turishi isbotlangan [16, 81].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Qanqa arxeologik yodgorligida quyidagilarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

- arxeologiya ob'ekti muhofaza hududini aniq belgilash, malakali mutaxassis va ekspertlar jalb etgan holda kompleks tadqiq etish, ayniqsa konservatsiya va restavratsiya ishlarini rivojlantirish;

- yodgorlikdan topilgan osori atiqalarni saqlash hamda namoyish etish uchun barcha qulayliklarga ega zamonaviy muzey barpo etish, hududda madaniy turizmni rivojlantirish maqsadida turistik marshrut ishlab chiqish, yodgorlik ustini yopish va ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etish.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-261-son qarori. Lex.uz.
2. Абдуллаев К.А. Квартал керамистов городища Канка // ИМКУ. Вып. 11. Ташкент, 1974. С. 83-92.
3. Абул Касим ибн Хаукаль. Извлечения из книги «Пути и страны» Пор. Бетгера Е.К. // Труды САГУ. Вып. IV. 1957. С. 24.
4. Акопджанян В.А. Атрофлари Тошкент бўйлаб. – Т.: «AL-VAIR», 2012. – 126 б.
5. Богомолова К.А. Следы древнего культа воды у таджиков // ИООН Тадж. ССР. 1952, вып. 2. С. 59.
6. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Ташкент. Фан. 1982. С. 41.
7. Buryakov Yu.F., Qosimov M.R., Rostovsev O.M. Toshkent oblastining arxeologik yodgorliklari.- T.: Fan, 1975. 120 b.
8. Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент, "Фан". 1979. С. 93-109.
9. Egamberdieva N.A. Arxeologiya. -T.: «Fan va texnologiya», 2011. - 176 b.
10. Ибрагимов Р.З. Харашкет шаҳри иқтисоди тарихидан // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейига бағишиланган Халқаро илмий конференция материаллари. Т.: «Фан», 2009. – Б. 155-157.

11. Массон М.Е. Загадочное городище Канка. Из результатов работ 29 отряда ТПЭ // СОНAT. Ташкент, 1934. №4. С. 115.
12. Шаниязов Ш.К. Об исторической топономике Ташкента // ОНУ. №7, 1983. С. 36-37.
13. <https://shosh.uz/qanqa-qanqatepa/>
14. [https://xs.uz/uz/post/qanqa-yodgorligida-vii-viii-va-xi-xii-asrlarga-oid-mahobat\\_li-inshoot-qoldiqlari-ochildi](https://xs.uz/uz/post/qanqa-yodgorligida-vii-viii-va-xi-xii-asrlarga-oid-mahobat_li-inshoot-qoldiqlari-ochildi)
15. Курязова Д. Чет давлатларда археологик ёдгорликларни музейлаштиришнинг ўзига хосликлари // Ўтмишга назар. 2021. 4 жилд, 4 сон. 13-21 бет.
16. Axmedov J. Farg'ona vodiysidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni muzeylashtirish (XIX-XXI asrlar). Toshkent. "Fan ziyosi", 2022. 81-bet.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*N<sup>o</sup> 3 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).